





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 58 076,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,2 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

| | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---------------------------------------------------|-----------------|-----------------|-------------------------------------------------------------|
| | 2023- yil | 2024- yil | |
| I. YAHM, jami | 48 391,8 | 58 076,5 | 107,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 46 594,2 | 55 685,6 | 107,5 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1 797,6 | 2 390,9 | 105,9 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 46 594,2 | 55 685,6 | 107,5 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 9 180,8 | 9 893,7 | 104,0 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 25 272,3 | 30 782,6 | 107,7 |
| sanoat | 22 520,7 | 27 395,8 | 107,1 |
| qurilish | 2 751,6 | 3 386,8 | 113,1 |
| xizmatlar | 12 141,1 | 15 009,3 | 109,7 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 3 105,7 | 3 814,6 | 113,7 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 2 084,0 | 2 649,6 | 114,7 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 6 951,4 | 8 545,1 | 106,4 |

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 944,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

| | 2023- yil | 2024- yil |
|---------------------------------------------------|--------------|--------------|
| I. YAHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 96,3 | 95,9 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,7 | 4,1 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 19,7 | 17,8 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 54,2 | 55,3 |
| sanoat | 48,3 | 49,2 |
| qurilish | 5,9 | 6,1 |
| xizmatlar | 26,1 | 26,9 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 6,7 | 6,9 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 4,5 | 4,8 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 14,9 | 15,2 |




2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 17,8 % ni, sanoat tarmog‘i 49,2 % ni, qurilish 6,1 % ni va xizmatlar sohasi 26,9 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,4 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 17,8 %), sanoatda – 107,1 % (49,2 %), qurilishda – 113,1 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 109,7 % ni (26,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,7 % (6,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,7 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,4 % dan (15,2 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 111,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 113,6 % va xizmatlar sohasida – 112,7 % qayd etildi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 26 374,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 21 918,2 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 47,4 %ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 47,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2023- yil

21 918,2

47,4 %

2024- yil

26 374,9

47,0 %

